

## TEXNIKA FANLARI / TECHNICAL SCIENCE

УО‘К 620.92:662.997

### “SHO‘RTAN GAZ KIMYO MAJMUASI” KORXONASI OQOVA SUVLARINING ISSIQLIGINI UTILIZATSIYA QILISH SAMARADORLIGI

**Abduraxmanova Nasiba Kuchkarovna<sup>1,2</sup>**- operatsion samaradorlik xizmati mutaxassis, mustaqil izlanuvchi, ORCID: 0009-0000-1809-7056, E-mail: [nasiba03002@gmail.com](mailto:nasiba03002@gmail.com)

**Toshmamatov Bobir Mansurovich<sup>2</sup>**-katta o‘qituvchi,  
ORCID: 0000-0001-7051-5307, E-mail: [bobur160189@mail.ru](mailto:bobur160189@mail.ru)

<sup>1</sup>“Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi” MChJ, Guzor t., O‘zbekiston

<sup>2</sup>Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi sh., O‘zbekiston

**Annotatsiya.** *Jahonda issiqlik va yoqilg‘i-energiya resurslarini boshqarishning energiya tejamkor tizimlarini yaratishda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan (QTEM) foydalanish bo‘yicha kuchli tendensiyalar kuzatilmoqda.*

Ushbu maqolada “Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi” (“Sho‘rtan GKM”) MChJning ikkilamchi energiya manbalari (oqova suvlari)ning issiqligini QTEM va issiqlik nasosli qurilmalar (INQ) asosida utilizatsiya qilish orqali “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi obyektlarini qo‘srimcha issiqlik energiyasi hamda tozalangan texnik suv bilan ta’minlash imkoniyati ko‘rib chiqilgan.

“Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi past haroratlari oqova suvlari issiqligini utilizatsiya qilish va issiqlik ta’minati tizimlarida foydalanish samaradorligini hisoblashda oqova suvlarning fizik-kimyoviy, texnologik parametrlari, oqova suvlarning miqdori va issiqlik quvvatlarini tajribaviy tadqiqot, issiqlik-texnik va hisoblash kabi an’anaviy usullardan foydalanilgan.

“Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi past haroratlari oqova suvlari issiqlik quvvatini oshirish, texnologik jarayonlar uchun tozalangan texnik suv, korxona obyektlarini issiqlik bilan ta’minlash imkonini beradigan, past haroratlari oqova suvlari issiqligini quyosh-termik bug‘ kompressorlik issiqlik nasosi (BKIN) usulda utilizatsiya qilish, issiqlik va tozalangan texnik suv olishning texnologik sxemalari taklif qilingan bo‘lib, ularning issiqlik quvvati va energiya samaradorligi asoslangan.

Qashqadaryo viloyati meteorologik iqlim parametrlarini hisobga olib, taklif qilinayotgan “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi past haroratlari oqova suvlari issiqligini BKIN usulida utilizatsiya qilish natijasida yiliga 350~400 tonna shartli yoqilg‘i (ko‘mir) tejalishiga erishiladi.

**Kalit so‘zlar:** oqova suv, ikkilamchi energiya manbalari, issiqlik nasosli qurilmalar, parabolaslindrik quyosh konsentrator, issiqlik ta’minati tizimi, energiya samaradorlik.

УДК 620.92:662.997

### ЭФФЕКТИВНОСТЬ УТИЛИЗАЦИИ ТЕПЛА СТОЧНЫХ ВОД ШУРТАНСКОГО ГАЗОХИМИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА

**Абдурахманова Насиба Кучкаровна<sup>1,2</sup>**- специалист службы операционной эффективности, самостоятельный соискатель

**Ташмаматов Бобир Мансурович<sup>2</sup>**-старший преподаватель,

<sup>1</sup>ООО «Шуртанский газохимический комплекс», Гузарский р-н., Узбекистан

<sup>2</sup>Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан

**Аннотация.** В мире наблюдаются сильные тенденции использования возобновляемых источников энергии (ВИЭ) при создании энергоэффективных систем для управления тепловыми и топливно-энергетическими ресурсами.

*В данной статье рассмотрены возможности обеспечения очищенной технической водой и дополнительной тепловой энергией объектов предприятия ООО «Шуртан ГХК» за счет утилизации тепла вторичных источников энергии (сточных вод) ООО «Шортанского газохимического комплекса» на базе солнечных и теплонасосных установок (ТНУ).*

*Проведено исследование физико-химических и технологических параметров сточных вод, расходов сточных вод, при расчете эффективности использования тепла низкотемпературных сточных вод в системах теплоснабжения предприятия ООО «Шуртан ГХК» использованы традиционные методы расчета теплоснабжения.*

*Представлена эффективность утилизации теплоты сточных вод ООО «Шуртан ГХК», для получения очищенной технической воды, а также обеспечения теплоснабжения объектов предприятия гелиотермическим (парокомпрессорным тепловым насосом) способом утилизации тепла низкотемпературных сточных вод. В работе предложены технологические схемы утилизации тепла с ПКТН и очищенной технической воды, исходя из их тепловой мощности.*

*С учетом параметров метеорологического климата Каишдаринской области в результате утилизации тепла низкотемпературных сточных вод предлагаемого ООО «Шуртан ГХК» по методу ПКТН будет сэкономлено 350~400 тонн условного топлива (уголь) в год.*

**Ключевые слова:** сточные воды, вторичные источники энергии, теплонасосные устройства, параболоцилиндрический солнечный концентратор, система теплоснабжения, энергоэффективность.

UDC 620.92:662.997

## EFFICIENCY OF HEAT UTILIZATION OF WASTEWATER OF “SHURTAN GAS-CHEMICAL COMPLEX” ENTERPRISE

**Abdurakhmanova, Nasiba Kuchkarovna**<sup>1,2</sup>- operational efficiency service specialist, independent researcher (PhD)  
**Tashmamatov, Bobir Mansurovich**<sup>2</sup>-senior lecturer

<sup>1</sup>“Shurtan GChC” LLC, Guzar d., Uzbekistan

<sup>2</sup> Karshi engineering-economics institute, Karshi city, Uzbekistan

**Abstract.** In the world, there are strong trends in the use of renewable energy sources (RES) in the creation of energy-efficient systems of management of heat and fuel-energy resources.

In this article, by utilizing the heat of secondary energy sources (wastewater) of “Shurtan Gas-Chemical Complex” LLC on the basis of RES and heat pump devices (HPD), the objects of the enterprise “Shurtan GChC” LLC with additional heat energy and purified technical water the possibility of provision was considered.

The authors conducted an experimental study of the physico-chemical and technological parameters of waste water in this article. The quantity and heat capacity of waste water, in the calculation of the efficiency of utilization of low-temperature waste water heat in the heat supply systems of the enterprise “Shurtan GChC” LLC, heat-traditional methods such as technical and calculation were used.

According to the authors, the enterprise “Shurtan GChC” LLC increased the heat capacity of low-temperature wastewater, purified technical water for technological processes, and provided the heat of the enterprise’s facilities with solar-thermal (steam compressor heat pump (SCHP) heat of low-temperature wastewater Technological schemes of disposal, heat and purified technical water are proposed in the SCHP) method, based on their heat capacity and energy efficiency.

*Taking into account the parameters of the meteorological climate of Kashkadarya region, as a result of the utilization of the heat of the low-temperature wastewater of the proposed “Shurtan GChC” LLC by the SCHP method, 350~400 tons of conventional fuel (coal) will be saved per year.*

**Keywords:** waste water, secondary energy sources, heat pump devices, parabolic cylindrical solar concentrator, heat supply system, energy efficiency.

## Kirish

Dunyoda an'anaviy yoqilg'i-energiya resurslari zaxiralarining kamayib borishi va atrof-muhitga ekologik yuklamaning ortib borishi natijasida an'anaviy energiya resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish juda dolzarb muammoga aylanmoqda. Bugungi kunda energiya muammosi global tus olib, energetika bazasini qayta qurish, ekologik toza, qayta tiklanadigan energiya manbalari va past potensialli ikkilamchi energiya manbalaridan foydalanish tobora rivojlanib bormoqda [1, 2, 3].

Sanoat korxonalarida ikkilamchi energiya resurslari (IER) – yoqilg'ining yonishida hosil bo'ladigan tutun gazlarining issiqligi, texnologik jarayonlarda va qurilmalarda sovitishdan keyingi tashlandiq suv va havo issiqligi, ventilyatsiya havosining issiqligi, texnologik ikkilamchi suv bug'lari, oqova hamda kanalizatsiya suvlari issiqligi va h.k.z. kabilar past potensialli IER hisoblanadi [4].

Neft va gazni qayta ishslash korxonalarida oqova suvlar bilan katta miqdorda past potensialli issiqlik atrof-muhitga tashlanadi va ekologik zarar keltiradi.

Neft va gaz sanoatida ishlatiladigan suv uglevodorod birikmali, turli tuzlar va mexanik aralashmalar bilan aralashib, ifloslanadi, ularni qayta ishlatish va tashlab yuborishdan oldin texnik jihatdan tozalanishi kerak.


“Sho'rtan GKM” MChJ korxonasining oqava suvlari korxonaning ishlab chiqarish va maishiy faoliyati jarayonida hosil bo'ladigan suyuq aralashmalik chiqindilardir. Ular erigan va erimagan suyuq, qattiq va gazsimon moddalar aralashmasi bo'lgan suvni ifodalaydi.

“Sho'rtan GKM” MChJ korxonasida hosil bo'ladigan oqova suvlarining fizik-kimyoviy xususiyatlari (1-jadval) va oqova suvlarni qayta ishslash uchun mo'ljallangan 6400 qurilmaning texnologik sxemasi 1-rasmida ko'rsatilgan.

## 1-jadval

### “Sho'rtan GKM” EAL 11.06. 2024-yil uchun oqova suv tahlili natijalari

Komponentlar nomi (talablar)	Aniqlangan komponentlar qiymati (talablar)	
	Me'yoriy hujjat bo'yicha	Amaldagi holat bo'yicha
	Biologik hovuz, chiqish	
pH	6,5-8,5	8,16
Muallaq moddalar, mg/l	30	30
Azot ammoniy, mg/l	2,0	1,8
Nitrit ionni, mg/l	3,3	0,066
Nitrat ionni, mg/l	45	8,3
Xloridlar, mg/l	350	329
Neft mahsuloti, mg/l	0,3	0,22
Fosfat ionni, mg/l	1,0	0,36
Sulfat ionni, mg/l	500	472
Quruq qoldiq, mg/l	1000	976
Temir ionni (+3), mg/l	0,3	0,12
Eriган kislород, mg/l	4-6	5,42
BPK, mg/l	6,0	-
XPK, mg/l	40	36,0



**1-rasm. 6400 qurilmasining texnologik sxemasi.**

1-rasmdan ko‘rinadiki “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi texnologik jarayonlar natijasida kimyoviy ifloslangan, moyli va minerallashgan oqova suvlar hosil bo‘ladi.

Amaliyotda oqova suvlarning past potensialli issiqligini utilizatsiya qilish, turli usullar asosida qayta ishslash amalga oshiriladi. Korxonalarda oqova suvlarning issiqligini utilizatsiya qilish, ya’ni IER sifatida qayta foydalanish muhim ilmiy-texnik ahamiyatga ega.

Xususan, issiqlik nasosli qurilmalar to‘liq ishga aylanadigan energiyaning ma’lum bir qismini sarflash hisobiga past potensialli ikkilamchi energiya resurslari energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi [5]. Ushbu turdag'i qurilmalardan foydalanishning eng muhim xususiyati uning past potentsialli energiyaga nisbatan ko‘p funksiyali ekanligidir. Bu yoqilg‘i-energetika resurslari balansini optimallashtirishga imkon beradi.

Mamlakatimizda ham turli past potensialli ikkilamchi energiya resurslari manbalariga ega bo‘lib, hozirgi vaqtida IER larni utilizatsiya qilish undan amaliyotda energiya ta’minoti tizimlarda samarali foydalanish yo‘lga qo‘yilmagan. Ayniqsa, “Sho‘rtan GKM” MChJning ikkilamchi energiya manbalari (oqova suvlarini)ning yillik miqdori 0,9÷1,0 mln. tonna, soatlik sarfi 115 m<sup>3</sup>/soat bo‘lib, o‘rtacha harorati esa 20÷35 °C ni tashkil qiladi.

### Usul va materiallar

Ikkilamchi energiya resurslaridan qayta foydalanish, ya’ni utilizatsiya qilish energiya tejamkorligining asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu masalani ilmiy asoslash uchun korxonaning, sexning, texnologik qurilma va jarayonlarning issiqlik balansini hisoblash va modellashtirishni taqozo qiladi [8, 9].

Ushbu maqolada mualliflar tomonidan “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi IER asosiy manbalari, oqova suvlarining fizik-kimyoviy, texnologik parametrlari, miqdorlari va issiqlik quvvatlari tajribaviy tadqiqot, issiqlik-texnik va hisoblash kabi an’anaviy usullardan foydalangan holda aniqlangan.

Olib borilgan tajribaviy tadqiqotlar, o‘lchov va nazorat ishlari asosida “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasining IER asosiy manbalari, ularning issiqlik-texnik parametrlari 2-jadvalda keltirildi.

### 2-jadval

#### “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi oqova suvlarining asosiy issiqlik-texnik parametrlari

T/r	Oqova suv (IER) parametrlari	Belgilanishi	O‘lchov birligi	Miqdori
1	Sarfi	$G_s$	$m^3/soat$	115
2	Yillik miqdori	$G_{yil}$	$m^3/yil$	$900\ 000 \div 1\ 000\ 000$
3	Bosimi	p	MPa	$0,05 \div 0,25$
4	Harorati	t	$^{\circ}C$	$22,4 \div 35$
5	Issiqlik quvvati	Q	kVt	3 346

1-jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi oqova suvlarining texnik potensiali 3 346 kVt ni tashkil qiladi. Ushbu potentsial parabolatslindrik quyosh konsentratori va issiqlik nasosli qurilmalar yordamida “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi obyektlarini isitish, issiqlik suv va tozalangan texnik suv bilan ta’minalash uchun ishlatalishi mumkin.

“Sho‘rtan GKM” korxonasi oqova suvlarining issiqlik quvvatini quyidagi tenglama yordamida aniqlaymiz:

$$Q = G_{oq.s.} \cdot c_p \cdot \Delta t, \quad (1)$$

bu yerda, Q-issiqlik quvvati,  $kVt$ ;  $G_{oq.s.}$ -oqova suv sarfi,  $\frac{m^3}{sek}$ ;  $c_p$ -oqova suvning issiqlik sig‘imi,  $\frac{kDj}{kg \cdot ^{\circ}C}$ ;  $\Delta t$ -haroratlar farqi,  $^{\circ}C$ .

1-formula yordamida “Sho‘rtan GKM” korxonasi oqova suvlarining issiqlik quvvatini hisoblandi va ularning energetik ko‘rsatkichlari 3-jadvalda keltirildi.


### 3-jadval

#### “Sho‘rtan GKM” korxonasi oqova suvlarining energetik ko‘rsatkichlari

T/r	Kattalik	Belgilanishi	O‘lchov birligi	Miqdori	MDj hisobida	Shartli yoqilg‘i t.sh.yo.
1	Issiqlik quvvati	Q	kVt	3 346	$12 \cdot 10^3$	-
2	Sutkalik issiqlik quvvati	$Q_{sut}$	kVt/soat	80 308	$289 \cdot 10^3$	9,841
3	Yillik issiqlik quvvati	$Q_{yil}$	kVt/soat	$29,3 \cdot 10^6$	$105 \cdot 10^6$	3 605


Mualliflar tomonidan “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi oqova suvlarining issiqlik quvvatini oshirish, texnologik jarayonlar uchun texnik toza suv, korxona obyektlarini issiqlik va issiqlik suv bilan ta’minalash imkonini beradigan, oqova suvlarini quyosh-termik bug‘ kompressorli issiqlik nasosi (BKIN) usulda qayta ishslash, issiqlik va texnik suv olishning texnologik sxemalari ishlab chiqilgan (2-4-rasmlar).

2-rasmda ko‘rsatilgan “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi oqova suvlarini quyosh-termik usulda qayta ishslash, issiqlik va texnik suv olishning texnologik sxemasi “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi oqova suvlari haroratini parabolatslindrik quyosh konsentratori yordamida oshirib, texnologik jarayon uchun texnik toza suv olish imkonini beradi.



**2-rasm. “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi oqova suvlarining issiqligini parabolatslindrik quyosh konsentratori asosida utilizatsiya qilish sxemasi:**

F<sub>1</sub>, F<sub>2</sub>, F<sub>3</sub>-filtrlar, PSQK-parabolatslindrik quyosh konsentratori, K-kondensator (теплообменник), KN-kondensat nasosi.



**3-rasm. “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi oqova suvlarining issiqligini BKIN asosida utilizatsiya qilish sxemasi.**

3-rasmda “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi oqova suvlari past potensialli issiqligini BKIN asosida oshirish orqali “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi obyektlarini issiqlik energiyasi bilan ta’minalash imkonini beradigan “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi oqova suvlarining issiqligini BKIN asosida utilizatsiya qilish sxemasi taklif qilingan bo‘lib, hosil qilingan issiqlik energiyasi “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi obyektlarining issiqlik ta’minti tizimlarida foydalanilishi mumkin.


INQ elektr energiyasi iste’molini oshirish bilan bir qatorda oqova suvlarining past potentsialli energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi va natijada u butunlay foydali ishga aylanadi [10].

Issiqlik nasosli qurilmalar turli maqsadlarda ishlatalishi mumkin. Jumladan, texnologik jarayonlarni isitish va sovitish, binolarni isitish va havoni maromlash, turli ehtiyojlar uchun suvni isitish, bug‘ ishlab chiqarish, havoni quritish va namsizlantirish, bug‘latish, distillash va h.k. [2].

“Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi obyektlarining isitish davrida oqova suvlarining issiqligini INQ yordamida utilizatsiya qilinishi natijasida olinadigan issiqlik miqdorini quyidagi tenglama yordamida hisoblaymiz:

$$Q_{oq.s.} = G_{oq.s.s.} \cdot c_p \cdot \rho_{oq.s.} \cdot (t_1 - t_2) \cdot \varphi \cdot n_{is.t.}, \quad (2)$$

bu yerda,  $G_{oq.s.s.}$ -oqova suvning sutkalik sarfi —  $2760 \frac{m^3}{sutka}$ ;  $c_p$ -oqova suvning issiqlik sig‘imi —  $1 \frac{kkal}{(kg \cdot ^\circ C)}$ ;  $\rho_{oq.s.}$ -oqova suvning zichligi —  $998 \frac{kg}{m^3}$ ;  $t_1, t_2$ -oqova suvning issiqlik nasosiga kirishdagi o‘rtacha harorati —  $27^\circ C$  va chiqishdagi harorati —  $5^\circ C$ ;  $\varphi$ -issiqlik nasosining isitish koefitsiyenti —  $3 \div 4$ ;  $n_{is.t.}$ -isitish mavsumining davomiyligi — 132 sutka (Qashqadaryo viloyati misoldida).




**4-rasm. "Sho'rtan GKM" MChJ korxonasi oqova suvlarining issiqligini kombinatsiyalashgan PSQK-BKIN asosida utilizatsiya qilish sxemasi.**

"Sho'rtan GKM" MChJ korxonasi obyektlarining isitish davrida oqova suvlarining issiqligini INQ yordamida utilizatsiya qilinishi natijasida olinadigan issiqlik miqdorini 2 ifoda yordamida, berilgan parametrlar asosida hisoblaymiz:

$$Q_{oq.s.} = 2760 \cdot 1 \cdot 998 \cdot (27 - 5) \cdot 3 \cdot 132 = 2666,33 \frac{\text{Gkal}}{\text{yil}}.$$

Hisob natijalaridan ko'rinish turibdiki, bir isitish mavsumida "Sho'rtan GKM" MChJ korxonasi oqova suvning issiqligini INQ yordamida utilizatsiya qilinishi natijasida  $2666,33 \frac{\text{Gkal}}{\text{yil}}$  issiqlik energiyasi olinishi va "Sho'rtan GKM" MChJ korxonasi obyektlarini isitish tizimini issiqlik energiyasi bilan ta'minlash imkonini beradi. Yil davomida esa  $24,2 \cdot 10^6 \text{ kVt/soat}$ , yoki  $87,2 \cdot 10^6 \text{ MDj}$ , yoki  $2,97 \cdot 10^6 \text{ kg}$ , yoki 2970 tonna shartli yoqilg'i tejalishiga erishiladi.

"Sho'rtan GKM" MChJ korxonasi oqova suvlarining issiqlik quvvati ( $Q_{oq.s.}$ , kVt) va uni INQ yordamida utilizatsiya qilinishida olingan issiqlik quvvatlari ( $Q_{INQ}$ , kVt)ning, oqova suvlarining sarfi, haroratlar farqi ( $\Delta t$ , °C) va issiqlik nasosining isitish koeffitsiyenti ( $\varphi$ )ning o'zgarishi inobatga olingan holda hisoblangan natijalar 5-a va b-rasmlarda ko'rsatilgan.



**5-rasm. a- Sho'rtan GKM" MChJ korxonasi oqova suvlarining issiqlik quvvati, b-Sho'rtan GKM" MChJ korxonasi oqova suvlarining issiqligini INQ yordamida utilizatsiya qilinishida olingan issiqlik quvvati.**

“Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi oqova suvning issiqligini INQ yordamida utilizatsiya qilinishi natijasida INQning bug‘latkichiga kirishdagi oqova suvning o‘rtacha harorati 27 °C dan 5÷10 °C gacha pasaytirilishi mumkin. Issiqlik ta’minati tizimidan INQ kondensatoriga kirayotgan issiqlik tashuvchining harorati 20 °C dan 50÷75 °C gacha oshiriladi va issiqlik ta’minati tizimiga uzatiladi.

## Xulosa

Dastlabki hisoblar shuni ko‘rsatadiki, Qashqdaryo viloyati meteorologik iqlim parametrlarini hisobga olib, taklif qilinayotgan “Sho‘rtan GKM” MChJ korxonasi past haroratlari oqova suvlarini issiqligini BKIN usulida utilizatsiya qilish natijasida yiliga 350÷400 tonna shartli yoqilg‘i (ko‘mir) tejalishiga erishiladi. Natijada, oqova suvlarning issiqligini utilizatsiya qilish orqali isitish mavsumida 284000-325000 kubometr gaz, yiliga esa 780000-800000 kubometr yoqiladigan gaz iqtisod qilinishi mumkin.

## Adabiyotlar

- [1] Uzakov G., Khamraev S., Khuzakulov S. Rural house heat supply system based on solar energy // IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, 2021, 1030(1), 012167.
- [2] Uzakov G.N., Toshmamatov B.M., Khushenov A.A., Nurmanov Sh.Kh. Geothermal systems for autonomous heat supply of local facilities // Alternative energy, 2021, T. 3. No. 3. P. 41-46.
- [3] Toshmamatov B.M., Rakhmatov O.I., Valiyev S.T., Nurmanov Sh.Kh. Hybrid heat power based on geothermal energy corrects heat-technical parameters//Alternative energy, 2023, T. 9. No. 2. Pages 72-82.
- [4] Uzakov G.N., Davlanov Kh.A., Toshmamatov B.M., Kamolov B.I. Analysis of hybrid heating systems for residential buildings using renewable energy sources //Alternative energy, 2023, T. 8. No. 1. P. 9-15.
- [5] Uzakov G.N., Davlanov Kh.A., Toshmamatov B.M. Energy efficient systems and technologies using alternative energy sources //Alternative energy, 2021, T. 1. P. 7-19.
- [6] Milova L. Thermal pumps for water systems of heating and hot water supply // Bathroom equipment, heating, conditioning, 2009, No. 4. P. 50 – 58.
- [7] Gubanov M. M. Features of the German legislation in the field of energy saving and application of renewables//Industrial power, 2013, No. 1. P. 54 61.
- [8] Islam M.A. and Aldaihani F.M.F., Justification for adopting qualitative research method, research approaches, sampling strategy, sample size, interview method, saturation, and data analysis// Journal of International Business and Management, 2022.5(1), pp.01-11.
- [9] Herez A., Hage H.E., Lemenand T., Ramadan M., Khaled M.: Review on photovoltaic/thermal hybrid solar collectors: Classifications, applications and new systems//Solar Energy, 2020, 207, 1321–1347.
- [10] Kudratov J., Toshmamatov B. Justification of heat-technical parameters of hybrid heat and hot water supply system //European international journal of multidisciplinary research and management studies. Volume 03 Issue 09. (2023).